

## ERKAK VA AYOL NUTQIDA MUROJAAT SO‘ZLAR SEMANTIKASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-683-688>

**Ko‘chimova Parizod To‘lqin qizi**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, o‘qituvchi  
e-mail:parizod.kuchimova.96@bk.ru tel:+998903474437

### ANNOTATSIYA

*Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Ushbu maqolada erkak va ayollarga xos murojaat so‘zlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** murojaat so‘zlar, murojaat shakllari, erkaklarga xos murojaat so‘zlar, ayollarga xos murojaat so‘zlar, semantika.*

### SEMANTICS OF REFERENCE WORDS IN MALE AND FEMALE SPEECH

#### ABSTRACT

*The culture of communication between women and men is unique. A lot of linguistic work has been done on various features of their speech, and in some countries, women’s speech has become a separate study. The article analyzes the reference words of men and women.*

***Keywords:** reference words, forms of reference words, masculine reference words, feminine reference words, semantics.*

Ming yillardan beri bir turga mansub bo‘lgan erkak va ayol bajaradigan vazifasi, jamiyatda tutgan o‘rni jihatidan bir-biridan farqlanar ekan, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham bu ikki jins o‘zaro ajralib turadi. Xususan, lisoniy va nolisoniy birliklarning ularga nisbatan qo‘llanishi hamda ularning lisoniy hamda nolisoniy birliklarni qo‘llashlarida bu ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ko‘pgina lisoniy va nolisoniy birliklar u yoki bu jinsga tegishli ekanligi bilan gender xoslanishga ega.

Ayollarda mantiq urg‘usi juda faol qo‘llanadi, pauza esa erkaklar nutqiga nisbatan juda qisqa bo‘ladi. Ayollar va erkaklar nutqida qo‘llanuvchi leksemalar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan

erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko‘proq va faolroq. Shuningdek, ayollar kundalik turmushda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda undan qochishga harakat qilishadi.

Ayol kishi tabiatan nafosat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo‘yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni ko‘proq qo‘llaydi. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qo‘rqish, nafratlanish, xafa bo‘lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin.

Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo‘lsa-da, bu haqda yoritib o‘tilgan. Jumladan, S.Mo‘minov, Sh. Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko‘rish mumkin. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikaning o‘rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol kishilarning nutqida qo‘llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol kishiga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim.

Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

- a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);
- b) konkret murojaat shakllari.

Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos bo‘lgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi.

"अरे बाबू! तुमने तो अभी तस्वीर शुरू भी नहीं की, यह कागज़ तो अभी कोरा ही है।"

— "अभी मैं तुम्हें समझने की कोशिश कर रहा हूँ। [कृष्ण चन्दर, 2013: 20]"

Tarjimasi. Ey bobu! Siz suvratni hali boshlamabsiz ham-ku, qog‘oz oppoqligicha turibdi. – Hozircha seni tushunishga harakat qilayapman [Krishn Chandar, 2011: 12].

Tahlil: “*Babu*” so‘zi Hindiston yarim orolida erkaklarga nisbatan hurmat belgisi sifatida ishlatiladi. Ayrim madaniyatlarda *babu* murojaati yaqin insoniga muloyim munasabatda bo‘lishni bildiradi. Hurmat qo‘shimchasi “*ji*” qo‘shilib. *Babuji* hosil

qilinadi. Bu soʻz Hindistonning shimoliy va sharqiy qismlarida otasini hurmat qilganda ishlatiladi. *Babuji* har qanday hurmatli oqsoqolga yoki erkakka hurmat atamasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Baʼzi Hindiston zamindorlari mulklarida Babu yoki Babu Shri unvonini uning hukmdorlari tomonidan ishlatilgan. Koʻpgina shohlilarda qirol oilasi aʼzolari va qirollarning qarindoshlari ham ushbu nomdan foydalanganlar. Shuningdek, *babu* odamni ismini chaqirganda hurmat koʻrsatish uchun uning ismiga qoʻshimchalar sifatida ishlatiladi, masalan: "*Mohan babu, iltimos, bu erga kelishingiz mumkinmi?*". Bengal tilida *babu* yoki *babushona* soʻzi kengroq qoʻllaniladi, yaʼni goʻdak, ayniqsa yosh bolalarga tegishli. Ushbu jumlada koʻrinib turibdiki, murojaatning abstrakt hamda konkret shakli ishlatilgan. Yaʼni *ey* murojaat shakli abstrakt hamda *bobu* murojaati konkret hamda u erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

Erkak kishiga nisbatan qoʻllanuvchi nomlar orasida, ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqsa, alohida eʼtirof etiladi. Otaga yaqin oila aʼzolari tomonidan murojaat qilinganida, odatda, uni ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Eriga otasi, dadasi, dadajonisi, bobojonisi, buvasi, bovasi deb murojaat qilishda “farzandlarining otasi”, “hurmat”, “yosh pogʻonasining yuqori bosqichiga mansublik” va “qarindoshlik”, “yaqinlik” kabi semalar namoyon boʻladi.

Maʼno va tushunchasiz til mavjud boʻlmaydi. Kishilar oʻz murojaat va munosabatlarida ana shu maʼnoga asoslanadilar. Aks holda til oʻz vazifasini bajara olmaydi, u oʻzining asosiy vazifasini faqat maʼno va tushunchalar tufayli bajaradi, har qanday xabar, maʼlumot maʼno hamda tushuncha asosida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Inson va jamiyatning oʻzi ham maʼno va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjuddir. Agar “...jamiyatning barcha aʼzolari uchun umumiy va tushunarli til boʻlmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish toʻxtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi” [Qurbonova M., 2014: 43]. Demak, insonning inson va jamiyatning shakllanish jarayonida ham tilning oʻrni katta va shuning uchun koʻp olimlar “inson va jamiyat paydo boʻlishi jarayonidagi zaruriy komponentlardan biri til va nutqning shakllanishi boʻldi” deb hisoblashadi.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qoʻrqinch, gina, iltifot, nafrat kabi maʼno ottenkalari qoʻshilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bogʻliq. Til esa ana shu munosabatni qanday boʻlsa oʻshanday, asliga mos holda roʻyobga chiqishi uchun vosita boʻladi.

Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy –

mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to‘la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya’ni ijtimoiy shaxs sifatida – o‘zga. Buning nutqdagi ifodalanishi – mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o‘zga, ya’ni ikkinchi shaxs, birlik yoki ko‘plik. Bu ijtimoiy o‘zga – grammatik ikkinchi shaxs so‘zlovchining ziddi bo‘lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figuradir – nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanida keltirilgan misollarga e’tiborimizni qarataylik. Tadqiqot jarayonida asarda uchragan murojaat so‘zlarini erkaklarga nisbatan ishlatiladigani hamda ayollarga nisbatan ishlatiladiganlarga bo‘lib o‘rganib chiqildi.

Asarda keltirilgan erkaklarga nisbatan ishlatilgan murojaat so‘zlar:

बचपन ही से उसे चित्रकला का बड़ा चाव था; मगर उसके पिता **रायबहादुर श्री** गंगासहाय डिप्टी इन्सपेक्टर जनरल जेलखाना थे और यह विभाग एक तरह से उनका अपना ही था और ज़माना अंग्रेज़ों का था। [कृश्न चन्दर, 2013: 37]

Tarjimasi. Bolaligida rassomlikka qattiq qiziqardi, biroq otasi **roybahodur Shri** bo‘lgani bilan zamona tizgini inglizlar qo‘lida edi [Krishn Chandar, 2011: 33].

Tahlil: *Ray* - bu hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan tarixiy unvon. Hindiston qit’asida ko‘plab hukmdorlar va shahzodalar tomonidan ishlatilgan. Telugu tilidagi variant *Rao*. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida hindu yoki sihlar boshlig‘iga unvon berish paytida shaxs nomiga *Raja* yoki *Rai* so‘zlari qo‘shilgan. Mo‘gullarga unvon berish Dehli sultonlaridan meros bo‘lib qolgan. *Rai* erkaklarga, ayollar uchun *Rani* murojaati qo‘llaniladi.

*Ray Sahib* va *Rai Bahadur* rahbarlik xizmati uchun berilgan sharaf unvonlari bo‘lgan. Ularga ulkan kuch beriladi hamda ularning feodal mulklari mahalliy hokimlarga teng bo‘lgan. Yuqorida berilgan *Shri* murojaat so‘zi ham hurmat ma’nosida ishlatiladi. Bu so‘z insonga bo‘lgan hurmatni yanada kuchli ifodalaydi. Ushbu so‘z ayollarga nisbatan ham erkaklarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

"नहीं **भाई!**" -लाची ने बड़ी सख्ती से कहा- "इस मनीआर्डर को वापस कर दो, फौरन वापस कर दो!" -यह कहकर लाची ने बड़ी तेज़ी से दरवाज़ा अन्दर से बन्द कर लिया।[कृश्न चन्दर, 2013: 41]

Tarjimasi. Yo‘q, **og‘a**, - dedi Laychiy g‘oyat jiddiy ohangda, - bu pulni qaytarib yuboring, darrov qaytarib yuboring. – Shunday deb Laychiy shiddat bilan eshikni ichkarisidan yopib oldi.[Krishn Chandar, 2011: 36].

Tahlil: Jumlada keltirilgan **भाई** murojaat so‘zi konkret murojaat shakli hisoblanadi. Uning so‘zma-so‘z tarjimasi *aka*. Ushbu murojaat so‘zi qarindosh urug‘chilikda ishlatiladi, bu so‘z orqali notanish odamga ham murojaat qilinadi.

“ऐनकवाले **बाबू** एक आना, छातेवाली **बीबी** एक आना, दाढ़ी वाले सरदारजी एक आना....” जैसे वह भीख न माँग रही हो, क्यूं मैं खड़े हुए लोगों को नीलाम कर रही हो। 'सारा माल लुटा दिया है एक आने मैं!'

Tarjimasi: Hoy ko‘zoynak taqqan *janob*, bir anna xayr qiling! Hoy soyabon tutgan *xonim*, bir anna xayr qiling! Hoy soqolli sardorjiy bir anna xayr qiling.

Tahlil: *Janob* murojaat shakli suhbatdoshning ismini yoki familiyasini talab qilmaydi. Keksa odamlar, erkaklarga, teng yoki oqsoqollarga murojaat qilinadi.

“ऐनकवाले बाबू एक आन्ना, छातेवाली बीबी एक आन्ना दाढ़ी वाले सरदारजी एक आन्ना....” जैसे वह भीख न माँग रही हो, क्यूं मैं खड़े हुए लोगों को नीलाम कर रही हो। [कृश्न चन्दर, 2013: 91]

Tarjimasi. Hoy ko‘zoynak taqqan *janob*, bir anna xayr qiling! Hoy soyabon tutgan *xonim*, bir anna xayr qiling! Hoy soqolli sardorjiy bir anna xayr qiling.

*Xonim* - erkakning ayolga murojaatining muloyim shakli bo‘lib, ijtimoiy mavqeni anglatuvchu murojaat so‘z hisoblanadi [Krishn Chandar, 2011: 90].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rishimiz mumkin-ki, Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanida ko‘rib chiqilgan misollarda murojaat so‘zlarining turlari o‘rganib chiqildi. Ularga ko‘ra, ijtimoiy mavqeni anglatuvchi, erkalashni, kesatiqni, hurmatni anglatuvchi hamda unvonni anglatuvchi o‘xshatishlar topildi va jins bo‘yicha ishlatilishi ajratib olindi.

## REFERENCES

1. Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2.
2. Сафаров Ш., Боймирзаева С. Гендер тилшунослиги ва матн тадқиқи //Хорижий филология, 2006. №4.
3. Кришан Чандар. Бир қизга минг ошиқ. (Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти (3-сон). – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

4. कृश्न चन्दर। एक लड़की हज़ार दीवाने। नई दिल्ली 2013.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1960.
6. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
7. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同" COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
8. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
9. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.